



SOHA TERMINLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Musurmanova Shaxnoza Qo‘chqorovna
(Xalqaro innovatsion universitet, katta o‘qituvchi),
Azimova Husnora Sunatillo qizi
(Xalqaro innovatsion universiteti 3-kurs talabasi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminlarni tarjima qilishning nazariy asoslari, terminlarning lingvistik tushunchasi, fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologiya sohasining o‘rni va ahamiyati, soha terminlarining tilshunoslikka kirib kelishi va tarjima muammosi, jahon tilshunosligida terminlarga ilmiy-nazariy yondashuv, chog‘ishtirilayotgan tillarda terminlarning tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlari, terminlarning leksik-semantik xususiyatlari singari masalalar haqida nazariy fikr-mulohazalar yoritilgan

Kalit so‘zlar: terminlar, taraqqiyot, nutq, adabiy norma, leksik-semantik, muhit.

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОТРАСЛЕВЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы перевода терминов, лингвистическое понимание терминов, место и значение терминологии на современном этапе развития науки, проблема проникновения терминов отрасли в языкознание и проблема перевода, научно-теоретический подход к терминологии в мировом языкознании, этапы исторического становления и развития терминов в сопоставимых языках и лексико-семантические особенности.

Ключевые слова: термины, прогресс, речь, литературная норма, лексико-семантическая, среда обитания.

LINGUISTIC RESEARCH OF FIELD TERMS

Annotation. This article examines the theoretical foundations of the translation of terms, the linguistic understanding of terms, the place and meaning of terminology at the present stage of scientific development, the problem of penetration of industry terms into linguistics and the problem of translation, the scientific and theoretical approach to terminology in world linguistics, the stages of historical formation and development of terms in comparable languages and lexico-semantic features.

Key words: terms, progress, speech, literary norm, lexico-semantic, habitat.

Kirish (Introduction) Terminologiya – sohada qo‘llaniladigan maxsus leksikani

o‘rganuvchi fan bo‘lib, terminlarning kelib chiqishi, shakli, ma‘nosi, vazifasi va qo‘llanilishi kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Sohaga oid terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir”¹⁷⁷. Hozirgi vaqtda sohaviy leksikaning dolzarbligi, bir tomondan, soha texnika va texnologiyalarining rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko‘payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, soha terminlarining shakllanish jarayoni, derivatsiyasi va funksional, semantik, pragmatik vazifalari kabi masalalarning yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq hodisa deb izohlanadi.

Soha terminlari har bir til so‘z boyligining juda katta qismini tashkil etadi. Uning hozirgi tahlikali dunyoda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki yangi terminlar yasash imkonini beradi. Bilim, sanoat yoki madaniyatning maxsus sohaga tegishli so‘z yoki so‘z birikmasi termin deb nomlanadi. Termin ifoda etayotgan biror so‘zning mazmuni mavzuli, biron adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi¹⁷⁸.

Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib bormoqda. Terminlar birdaniga paydo bo‘lib qolmaydi, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda o‘ylab topiladi, ijod qilinadi. Shuningdek, oddiy so‘zdan farqli ravishda, terminning ma‘nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi. Maxsus so‘z-termin so‘z terminlik ma‘nosida va o‘z terminologik maydonida qo‘llanar ekan, uning har doimgi ma‘nosi saqlanib qolaveradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Insoniyat tarixida iste’molda bo‘lgan terminlarning fonetik, leksik-semantik, struktur-funksional, tarixiy-etimologik hamda qiyosiy statistik jihatlari haqida H.A.Dadaboyev, X. Paluanova, O.Ahmedov, A.Matg‘oziyev, A.Ibrohimova, X.Arzikulov, Z.Choriyev, L.N.Gumilev, Sh.Abdullayeva, F.Bakirov, D.Kadirbekova, X.Paluanova, A.I.Primov, G‘.Abdurahmonovlar¹⁷⁹, o‘zbek tili terminologiyasining sinxron tadqiqi bo‘yicha H.Yodgorov¹⁸⁰, lar ilmiy izlanishlar olib borgan.

XX asrning o‘rtalaridan boshlab ingliz, rus va o‘zbek terminshunosligida til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi omilining tarjima ekvivalentligiga ta’siri masalasi yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar maydonga keldi.

Lingvokulturologiya sohasida so‘nggi yillarda qiyosiy aspektdagi izlanishlar ko‘lami kengaydi. A.M.Kurganov, A.A.Sharipova, D.A.Tosheva, D.K.Baxronova, H.A.To‘xtaxodjayeva, D.A.Rustamova, Sh.Z.Raxmatullayeva, D.A.Rustamov, A.A.Mo‘minova¹⁸¹ kabi tilshunoslarning ishlari bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillar

¹⁷⁷ Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Т., 2009. – С. 4.

¹⁷⁸ Wuster E. An Introduction to general terminology and terminography. Volume I-II, New York. 1999.

¹⁷⁹ Abdurahmonov G‘. Terminologiya muammolari // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perespektivalari: Birinchi Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – T.: Fan, 1986. – 136 b.;

¹⁸⁰ Yodgorov H. O‘zbek tili harbiy terminologiyasining sinxron tadqiqi: Filol.fan. nom. ...dis. – T., 1996. – 163 b.;

¹⁸¹ Kurganov A.M. Ingliz va o‘zbek tillarida terminlar qo‘llanilishining lingvokulturologik xususiyatlari: f.f.f.d. (PhD) diss. – T., 2021. – 154 b.;

doirasida olib borilgan tadqiqotlar bo‘yicha ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Termin fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat, boshqaruv va sohaga xos so‘z hisoblanadi. terminologiya– soha terminlari haqidagi ta‘lim va terminlar majmui degan ma‘nolarni anglatadi. Termin o‘rnida ba‘zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to‘g‘ri emas. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. “Atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalar umumxarakterda bo‘lganligi e‘tiborga olinmaydi. Chunki “atama” deganda terminologiyaga aloqasi bo‘lmagan onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Istiloh so‘zi esa arabcha o‘zlashmadir. Uni xalq tushunmaydi va me‘yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamidagi o‘rni va vazifasini belgilash, termin anglatgan mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Terminlar paydo bo‘lib qolmaydi, aksincha, ularning zaruriyati anglagan holda o‘ylab topiladi, ijod qilinadi. Shuningdek, oddiy so‘zdan farqli ravishda, terminning ma‘nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi, uning tub ma‘nosi saqlanib qolaveradi.

Yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko‘proq kirib kelgan bo‘lsa, shu soha terminologiyasi to‘xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Ana shunday sohalardan biri bugungi harbiylik ishi bilan shug‘ullanuvchi armiya, aviatsiya va mudofaa sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e‘tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy mudofaa harbiy kuchlari texnik vositalar qo‘llanadigan yetakchi sohalardan biriga aylandi. Natijada ushbu soha terminologiyasiga juda ko‘plab termin va tushunchalar, shuningdek, ular bilan birga, yangi ilmiy-texnikaviy terminlar, atamalar ham kirib kelmoqda.

Lekin B.N.Golovin terminologiya va terminologik tizim ifodalarini kasbiy faoliyat sohalaridagi bir-biri bilan aloqador tushunchaviy leksik-semantik, so‘z yasalishi va grammatik darajalarda bog‘langan terminlar majmuini bildiruvchi sinonimlar sifatida ishlatishni taklif qiladi¹⁸².

Terminologiyaga bag‘ishlangan ko‘plab ishlarda u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo‘lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi, deb qaraladi. A.A.Reformatskiy terminga ta‘rif berar ekan, “...terminlar – bu maxsus so‘zlardir”, degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so‘zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi.

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.

¹⁸² Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М., “Высшая школа”1977. – С. 186.

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari, professionalizmlar ham kiradi.

U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘pincha, jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”, deydi¹⁸³.

Ma’lumki, har bir sanoat, qishloq xo‘jaligi, mudofaa, maorif, madaniyat, davlat qurulishi kabi sohalarining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo‘llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo‘lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining “qat’iy ilmiy terminologiya”ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda “qat’iy ilmiy terminologiya” tushunchasini biron-bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo‘lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Terminlarning aniqligi va qat’iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Terminlarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo‘lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog‘liq. Bu taraqqiyot to‘xtovsiz bo‘lgani uchun yangi terminlarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo‘ladi. Umuman, ona tilida terminlarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo‘llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo‘lgan manbadir. Terminlarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Soha terminologiyasi voqelikni tushunishning ma’lum bir belgilangan tizimini ifodalab, intellektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. V.V.Vinogradovning fikriga ko‘ra, “Terminlarni yaratish va ta’riflashda ikki tomon, ikki nuqtayi nazar mavjud: tarkibiy-lingvistik va muayyan fan tushunchalar tizimining rivojlanishi bilan belgilanadigan konseptual, semantik”¹⁸⁴.

D. S.Lotte quyidagi kategoriyadagi so‘zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: “Texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblar, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o‘lchov birliklari”¹⁸⁵; A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so‘zlarining bir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: “Termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi

¹⁸³ Калинин А.В. Лексика русского языка. – М., 1971. – С. 120.

¹⁸⁴ В.В. Виноградов, Вопросы языкознания” 1961, М.: С. 3-10.

¹⁸⁵ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории методики. – М., 1961. – С. 29

tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir. Kasb-hunar so‘zlari esa biror kasb, mutaxassislik o‘rtasida, ko‘pincha, jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir¹⁸⁶.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, terminologiyani tarjima qilishda har ikki tilda mavjud bo‘lgan terminlarning leksik, semantik, grammatik jihatlarini chuqur o‘rganish tarjimaning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Mamlakatimiz terminshunos, lug‘atshunos olim mutaxassislari tomonidan soha terminlari tilimizda qanchalik faol ishlatilishiga qaramay, ularni to‘plab, tartibga solish, shu bilan birga, bugungi kunda butun dunyoga keng qo‘llanilayotgan ingliz terminlarining o‘zbek tilidagi muqobillarini topish va ularni izohli hamda tarjima lug‘atlarida unifikatsiya qilish, bir xillashtirish, standartlashtirish masalasi hali yetarlicha hal qilingan emas.

Terminni shakllantirish jarayoni ilmiy tushunchani nomlash jarayonining ongli ravishda yuz berish xususiyati uni tarjima tilida berilishini ham murakkablashtiradi, bu esa terminni foydalanishdagi so‘zning shakllanish jarayonidan ajratib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- (1) . Abdurahmonov G‘. Terminologiya muammolari // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: Birinchi Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – T.: Fan, 1986. – 136 b.;
- (2). В.В. Виноградов, Вопросы языкознания” 1961, М.: С. 3–10.
- (3). Головин Б.Н. Введение в языкознание. – М., “Высшая школа”1977. – С. 186.
- (4). Yodgorov H. O‘zbek tili harbiy terminologiyasining sinxron tadqiqi: Filol.fan. nom. ...dis. – T., 1996. – 163 b.;
- (5). Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология. – Т., 2009. – С. 4.
- (6). Калинин А.В. Лексика русского языка. – М., 1971. – С. 141.
- (7). Калинин А.В. Лексика русского языка. – М., 1971. – С. 120.
- (8). Kurganov A.M. Ingliz va o‘zbek tillarida terminlar qo‘llanilishining lingvokulturologik xususiyatlari: f.f.f.d. (PhD) diss. – T., 2021. – 154 b.;
- (9). Лотре Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории методики. – М., 1961. – С. 29.
- (10). Wuster E. An Introduction to general terminology and terminography. Volume I-II, New York. 1999.

¹⁸⁶ Калинин А.В. Лексика русского языка. – М., 1971. – С. 141.